

## MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi  
Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim  
kafedrası Maxsus pedagogika yo'nalishi o'qituvchisi

Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi  
Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim  
kafedrası Maxsus pedagogika (surdopedagogika) yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqidagi muammolar va bolalardagi kamchiliklar va ularni oldini olish haqida, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitishda nuqsoni bo'lgani tufayli ulardagi nutq muammosi va ularning psixologiyasi ham atroflicha yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Surdopedagogika, nutq, ong, ta'lim-tarbiya, koxlear implantat

Surdopedagogika-lotinchа "surдus" - karlik degan ma'noni anglatib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va shaxslarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi maxsus pedagogikaning bir tarmog'i. Maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti - maktabgacha yoshdagi va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. Maktabgacha davrda bola uchun eshitish eng muhim ahamiyatga ega, bu davrda bola ayni atrof-olamni tanib, bilib borayotgan payti bo'ladi. Atrof-muhit va ijtimoiy hayotni o'rganishda bola uchun eshitish ko'p narsani bilib olishda zarur. Eshitish nuqsonini oldini olishda yoki uni aniqlashda korreksion-pedagogik tadbirlar yaxshi yordam beradi. Bolani ijtimoiy hayotga moslashtirishda, har tomonlama rivojlangan shaxs qilib yetishtirishda korreksion-pedagogikaning ahamiyati katta. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning psixikasiga, rivojlanishi ga va nutqining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri uning maktabgacha yoshi hisoblanadi va bu davr bolalik davrining muhim bir qismi hisoblanadi. Shu davrdan boshlab bola o'zining nutqiga, o'z fikriga ega bo'ladi, unda individual xususiyatlari rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolaning xarakter xislatlari ham belgilanadi. Bolaga tarbiyaning muhim asoslari 5 yoshligacha bo'lgan davrida berilishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda eshitish sezgisi muhim ahamiyatga ega.



Eshitish orqali bola nutq egallaydi. Bog'chalarda tarbiyachi bolalarning eshitish sezgisini tekshirib turishi lozim. Agarda bolada eshitish sezgisi yaxshi eshitmasa u atrofdagilar chaqirganda eshitmay qolishi va nutqni mustaqil egallay olishga qiynalishi mumkin. Bu hollarda uning tengdoshlari uni "kar quloq", "anqov" deb masxara qilishlari mumkin. Agarda bu holni tarbiyachi ham bilmasa u bolaga qattiq gapirishi, bola biron nimani tushunmay qayta so'rasa "karmisan, eshitib o'tir" deb urishib berishi mumkin. Shuningchun, tarbiyachi har bir bola bilan individual shug'ullanishi lozim. Yaxshi eshitmaydigan bolalarni biron bir hikoya o'qib berayotganda oldinroqqa o'tkazishi kerak. Tushunmaganini so'rab, erinmay kerak bo'lsa, boshidan o'qib, tushuntirib berishi lozim. Chunki agarda bola tushunmaganini qayta so'raganda tarbiyachi jerkib bersa, bola qayta so'rashga qo'rqadi va tengqurlari oldida mulzam bo'lib qoladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga bo'lgan e'tibor hozirgi kunda kuchaymoqda. Eshitish nuqsoni bor bolalarga koxlear implantatsiya qilib eshitish apparatlari qo'yilyapti. Va bu yilning fevral oyidagi yangiliklariga ko'ra bog'cha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardan 6 nafarining qulog'iga gen qo'yilgan. Natijada 6ta boladan 5tasida eshitish qobiliyati tiklangan.

Tug'ma karlik nuqsoni bilan dunyoga kelgan 5 nafar bola RRG-003 preparatini olgandan keyin eshitishni boshlagan. RRG-003 gen preparati AQShning Harvard tibbiyot maktabi va Xitoyning Fudan universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Klinik sinovlar maktabgacha ta'lim yoshidagi 6 nafar tug'ma karlik nuqsoni bor bolada o'tkazilgan. Buning uchun yangi preparat quloqqa in'eksiya orqali yuborildi. Ma'lum muddat o'tgach, olti bemordan besh nafarida eshitish hamda nutq funksiyalari tiklangan. Olimlar 6 oydan ko'proq vaqt davomida barcha bolalar ahvoli va salomatligini kuzatishgan. Ijobiy xulosaga kelingach, tadqiqot natijalari keng jamoatchilikka ma'lum qilindi. Qayd etilishicha, dori quloqqa kiritilishi bilanoq eshitish qobiliyati bir zumda tiklanib qolmaydi. Muolajaning yaqqol natijalari in'eksiyadan to'rt hafta o'tib sezila boshlaydi. Dastlab jonivorlar, so'ng insonlarda o'tkazilgan sinovlar muvaffaqiyatli kechganiga qaramay, mutaxassislar yangi davolash usulini dunyo bo'ylab ommaviy qo'llash uchun hali biroz erta, degan xulosada. Chunki gen terapiyasining xavfsizligi va samaradorligiga to'liq ishonch hosil qilish uchun yana ayrim qo'shimcha tadqiqot hamda kuzatuvlarga ehtiyoj bor. Shu bois u dastlabki bosqichda bir necha mamlakatdagina tibbiy amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Genning salbiy tomonlari ham bor. U eshitish qobiliyatini tiklagani bilan boshqa organning faoliyatini susaytirishi mumkin. Masalan, ko'zga salbiy ta'sir ko'rsatishi



mumkin. Shuningchun, hozirgi kunda eng yaxshisi koxlear implantat. Maktabgacha guruhlar dasturi umumiy didaktik va va maxsus tamoyillar asosida tuzilgan bo'lib, kar bolalarning jismoniy, aqliy, ahloqiy, meqnat va estetik tarbiyasini ta'minlovchi tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Dastur quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- 1) Jismoniy tarbiya
- 2) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va madaniy-gigienik malakalarni shakllantirish
- 3) o'yin
- 4) Tevarak atrof bilan tanishtirish va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish.
- 5) Predmet amaliy ta'lim va tasviriy faoliyat.
- 6) So'zli nutqni shakllantirish
- 7) Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuz.
- 8) Matematik tasavvurlarni shakllantirish.

Mashg'ulotlar jadval asosida ertalabki va kechki soatlarda olib boriladi. Ertalabki soatlarda surdopedagog va tarbiyachi 2ta mashg'ulot o'tkazadi. Umumiy yalpi mashg'ulotlardan so'ng surdopedagog eshitish qobiliyatni rivojlantirish va talaffuzni o'rgatish bo'yicha kamida 6 ta alohida yakkama-yakka mashg'ulotlar olib boradi. Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi o'z mashg'ulotlarini barcha guruh bolalari bilan o'tkazadi. O'qituvchi-defektolog (surdopedagog) nutq o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish mashg'ulotlarini olib boradi. Tarbiyachining zimmasiga bolalarning kun tartibini tashkil etish, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, o'yin, mehnat, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etish, musiqa mashg'ulotlarida qatnashish yuklatiladi. Mashg'ulotlarda nutqiy nafasni rivojlantirish, ovozni hosil qilish, tovushlarni qo'yish, so'z, gap, matn ustida ish olib boriladi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish ishlari yalpi va yakkama-yakka ravishda amalga oshiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi ta'lim-tarbiya berish ishining mazmuni dasturning jismoniy tarbiya, o'yin, mehnat, tasviriy faoliyat va qurish-yasash, tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, musiqa tarbiyasi bo'limlarida aks ettirilgan. Har bir ko'rsatilgan dastur bo'limi bolalarni umumiy rivojlantirish vazifasini amalga oshiradi. Dastur bo'limlari bo'yicha olib borilgan ta'lim-tarbiyaviy ish bolaning umumiy rivojlanishini boyitibgina qolmay, uni normal bolalar rivojlanishiga yaqinlashtiradi hamda korreksion ishni olib borish uchun zamin yaratadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. <https://kun.uz/uz/46884682> sayti
2. Maktabgacha surdopedagogika 2007. 6-bob, 41-42 betlar, U.Fayzieva A.Avloniy nomidagi XTXMOMI kaf. mud., prof. D.Nurkeldieva Nizomiy nomidagi TDPU dos., p.f.n. MAKTABGACHA SURDOPELAGOGIKA
3. D. A. Nazarova, Z. N. Mamarajabova Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). Darslik. - Toshkent : 2020.

